

## BIOSTIMULYATORLARNING HAYVONLAR IMMUN TIZIMIGA TA'SIRI

Jumaqulova G.S., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Rasulova S.L., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Shavkatova X.R., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

**Kalit so'zlar:** embrion, stimulyator, qon zardobi, taloq, jigar, buyrakusti.

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dastur chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirish, respublika aholisini oziq ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilashga qaratilgan.

**Kirish.** Hozirgi kunda hayvon tanasining barcha ozuqaviy elementlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan barqaror ozuqa ta'minoti bo'lishi kerak. Biroq, zamonaviy ekologik beqarorlik sharoitida miqdoriy va sifatli oziqlantirishning buzilishi, yirik chorva mollarining kichik maydonlarda to'planishi, harakatning yetishmasligi, mikroiklim ko'rsatkichlarining nomuvofiqligi hayvonlarning immuniteti va reproduktiv qobiliyatiga ta'sir qilmasligi mumkin. Organizmga turli omillar ta'sir qilganda hayvonlarning ko'payish funksiyasi buziladi, unumdorligi pasayadi, embrionlar nobud bo'ladi, tug'ilgan yosh hayvonlarning yashovchanligi susayadi va turli kasalliklarga duchor bo'ladi [2, 3].

Biogen stimulyatorlar - muayyan sharoitda hayvonlar to'qimalarida hosil bo'ladigan va biologik faollik xususiyatiga yega bo'lgan moddalar. Biogen stimulyatorlar to'g'risidagi ta'limot ilk bor V. P. Filatov (1875—1956) tomonidan ishlab chiqilgan. Biogen stimulyatorlar organizm funksiyalarini tezlashtiradi. Biogen stimulyatorlarli preparatlar hayvonlar to'qimalaridan turli xil omillar (sovitish, qorong'i joyda saqlash va boshqalar) ta'sir etishi orqali tayyorlanadi. Biogen stimulyatorlardan chorvachilikda yosh mollarning o'sishini tezlashtirish, pushtini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirishda foydalaniladi. Bunda suyuq preparatlar in'eksiya qilinadi yoki ichiriladi. Implantatsiya maqsadlarida quruq preparatlar (hayvonlar embrioni, talog'i, jigari va buyrak usti bezidan tayyorlanadigan quruq biostimulyatorlar), yilqilar qon zardobi (SJK), hayvonlarning konserva qilingan qoni va uning ekstrakti (DZK), atsidofil bulon kulturasini (ABK) va boshqalar ishlatiladi [1].

**Xulosa.** Shuning uchun chorvachilikni rivojlantirishning zaruriy sharti hayvon tanasining barcha ozuqaviy elementlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan barqaror ozuqa ta'minoti bo'lishi kerak. Buning uchun hayvonlar immu tizimiga bevosita ta'sir qiluvchi biostimulyatorlar ishlab chiqarish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Венедиктов А.М. Справочник по кормлению сельскохозяйственных животных [Текст] / А.М Венедиктов, П.И. Викторов, Н.В. Груздев и др. - М.: Агропромиздат, 1988. - 366 с.
2. Двинская, Л.М. Биологическое действие и эффективность использования альфа-токоферола и синтетических антиоксидантов в кормлении кур [Текст]: Автореф. дис.... доктора биол. наук. - Боровск, 1976. - 45 с.
3. Lang A, Niederwieser D, Huber C. Treatment with human recombinant interferon alpha –2 induces increase of in vivo neopterin excretion. In: Pfleiderer W., Wachter, Curtius H.C (eds.) Biochemical and Clinical Aspects of Pteridines.pp. New York : Walter de Gruyter, 1984: 251 –254
4. Jumaqulova G.S. Hayvonlar to'qimalaridan ajratib olingan biostimulyatorlarning immun tizimiga ta'siri. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi –7-1/2023 94-96 betlar.